Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi oqib boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asiddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari	878
<i>Mamatxonov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish.....	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafuz Shermirzayevna, Gazibekova Gulvaza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili.....	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari.....	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari.....	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi.....	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons.....	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency.....	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends.....	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida).....	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari.....	968
Mirzaakbarov Dilshod Davlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar.....	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish.....	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli.....	977
Odamboyeva Mehrimon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari.....	985
<i>Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i>	
Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi.....	992
<i>Shermatova Yukut Sabirovna</i>	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
<i>Soliyeva Diyora Bobur qizi</i>	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
<i>Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi</i>	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
<i>Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida.....	1008
<i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
<i>Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi</i>	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
<i>Xoshimova Y. I.</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni.....	1023
<i>Xudoyqulova Aziza Anvar qizi</i>	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi.....	1026
<i>Yuldashov Sherzod Sattorovich</i>	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
<i>Жамолова Зарнигор Баходир кизи</i>	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов.....	1033
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni.....	1041
<i>Haydarova Namuna</i>	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners.....	1044
<i>Mohigul Nizomiddinova</i>	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish.....	1049
<i>Soliyeva Maftuna Tirkash qizi</i>	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
<i>Xamrayeva Iroda Sayfullayevna</i>	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
<i>Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi</i>	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
<i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
<i>Primkulova Iroda Berdimurodovna</i>	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
<i>Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna</i>	
Talabalarning ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	1071
<i>Esmuratov Muzaffar Elamonovich</i>	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Adizova Nodira Baxtiyorovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Boshlang'ich ta'lim kafedrası professori,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada muammoli ta'lim texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Muammoli ta'limning maqsadi – turli o'quv fanlari bo'yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish, ularni yechish usullarini ishlab chiqish, muammoli vaziyatni hal etish darajalarini aniqlash hamda muammoli darslarni tashkil etish bosqichlarini belgilashdan iborat. Shuningdek, maqolada muammoli ta'limni tashkil etish va boshqarish jarayonlari, talabalarining mavzuga oid muammoli masala va vaziyatlarning yechimini topishga o'rgatish metodlari yoritilgan. Bugungi kunda muammoli o'qitish pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilarning mustaqil faoliyati asosida yechishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, innovatsion jarayonlar, kognitiv, pragmatik, zamonaviy yondashuvlar, muammoli ta'lim texnologiyalari.

Abstract: The article discusses problem-based educational technologies and their specific features. The main goal of problem-based learning is to create problem situations in the teaching process of different subjects, to develop methods for solving them, to determine the levels of problem-solving, and to organize the stages of conducting problem-based lessons. The article also analyzes the organization and management of problem-based learning, as well as the methods of teaching students to find solutions to various issues and situations related to the subject. At present, problem-based learning is focused on the independent activities of students in solving problem situations created by the teacher, which contributes to the development of their knowledge, skills, and competencies.

Key words: continuous education, innovative processes, cognitive, pragmatic, modern approaches, problem-based educational technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемные образовательные технологии и их специфические особенности. Цель проблемного обучения заключается в создании проблемных ситуаций в процессе преподавания различных учебных дисциплин, разработке способов их решения, определении уровней разрешения проблем, а также в организации этапов проведения проблемных занятий. Кроме того, в статье анализируются вопросы организации и управления проблемным обучением, методы обучения студентов нахождению решений по различным проблемным вопросам и ситуациям. Сегодня проблемное обучение предполагает самостоятельную деятельность учащихся по решению проблемных ситуаций, созданных педагогом, что способствует развитию их знаний, умений и навыков.

Ключевые слова: непрерывное образование, инновационные процессы, когнитивные, прагматические, современные подходы, проблемные образовательные технологии.

KIRISH

Bizga ma'lumki, zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'lim alohida o'rin tutadi. Muammoli ta'lim texnologiyasining zamirida yoki bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolar zanjiri yotadi.

Muammoli ta'lim metodiga asoslangan ta'lim jarayoni quyidagi to'rtta bosqichda amalga oshiriladi:

- muammoli vaziyat hosil qilish;
- muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uchun umumiy tahlil qilish;
- taxmin qilingan yechimni tekshirish;
- amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo'llash, ularni tartibga solish hamda sistemalashtirish.

Dars jarayonida o'quvchi muammoni yechar ekan, o'zicha muhim bo'lgan "kashfiyot" qiladi. Bu hol o'quvchida o'ziga ishonch hosil qiladi (ya'ni: mening kashfiyotim, men topdim, ixtiro qildim).

Mana shu tomoni bilan muammoli ta'lim texnologiyasi boshqa barcha o'qitish texnologiyalaridan ustun turadi. Chunki bunda o'quvchi izlanish olib borish, tahlil qilish, empirik xulosa chiqarish, boshqa vaziyatga qo'llash, fikr-mulohazalarni taxminan sistemalashtirib isbotlash va kelgusida amaliy faoliyatga qo'llash malakalarini egallab boradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli ta'lim texnologiyalari zamonaviy pedagogikada muhim o'rin egallaydi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o'z asarlarida tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlikni ta'lim jarayonida asosiy tamoyil sifatida belgilab bergan bo'lib, bu yondashuv muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlarni topishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan, jumladan muammoli yondashuvlardan keng foydalanish zarurligi qayd etilgan.

Pedagog olim N.N. Azizxo'jayeva o'qituvchi tayyorlash jarayonida pedagogik texnologiyalarning samarali qo'llanishini alohida ta'kidlab, muammoli ta'lim usuli orqali talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy qobiliyatni shakllantirish mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, L.V. Golish va D.M. Fayzullaevlarning tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarni loyihalash va rejalashtirish jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish metodlari samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

J.G'. Yo'ldashev va S.A. Usmonovlar esa pedagogik texnologiya asoslarini ishlab chiqishda muammoli ta'limning didaktik ahamiyatini ochib berib, o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy masalalar orqali mustahkamlash va yangi bilimlarni izlash ko'nikmalarini shakllantirishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, muammoli vaziyatlarni dars jarayoniga joriy etish o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi muammoli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash hamda uning samaradorligini baholashga qaratildi. Ma'lumotlar asosan ilmiy-pedagogik manbalar, mavjud o'quv qo'llanmalar va normativ-huquqiy hujjatlardan olingan bo'lib, ular mazmuniy tahlil usuli orqali o'rganildi. Shuningdek, amaliy tajribalarni kuzatish, dars jarayonidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar o'tkazish orqali empirik ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash va umumlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, muammoli ta'limning o'quvchilar mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlab berildi. Statistik tahlil orqali talabalarning muammoli vaziyatlarga yondashuvi va ularni hal etishdagi faoliyati baholandi. Shuningdek, nazariy tahlil jarayonida muammoli ta'limning psixologik va pedagogik jihatlari chuqur o'rganildi. Natijada, muammoli ta'lim texnologiyalari asosida olib borilgan izlanishlarning o'quvchilar bilimi, ko'nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan holda isbotlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muammoli ta'lim an'anaviy o'qitish metodikasiga tayanadi. O'qituvchi muammoli vaziyatni o'quvchilar oldiga qo'yish bilan bir qatorda, uni yechish uchun izlanish zarurligini, izlanish uslublarini o'quvchilarga o'rgatadi. Muammo yechimini topish, izlashga o'tish uchun, eng avvalo zaruriy muhit yaratilishi kerak.

Muammo aniq bo'lishi, o'quvchilar uni yechimini izlash jarayonida oldingi mavzularda, fanlarda olgan ma'lumotlari, tushunchalari va bilimlaridan foydalana olishi kerak. O'quvchilar oldiga qo'yilgan muammo o'zining dolzarbligiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi izlanishni ma'lum bir sistemada, muayyanlikda bo'lgan muammo ustida olib borishi kerak. Shunda o'quvchi muammoni tahlil qiladi, qismlarini ajrata oladi va yechish uchun kirishadi.

Ta'lim jarayonini loyihalash bevosita muammoli ta'limni qo'llashga va aksincha, muammoli ta'lim ta'limni loyihalashga olib keladi. Muammoni o'qitish texnologik loyihalashtirilgan o'quv jarayonini amalga oshirishning didaktik konstruksiyasi sifatida qo'llaniladi.

Amerikalik olim U. Gordon (1960) o'quvchilarga muammolarni, uning tashkil qiluvchi elementlarini shakllantirishni, izlanishning bosh maqsadini ajrata bilishni, turli-tuman xarakterdagi masalalar yechimining o'xshashlarini qidirishni o'rgatish muammoli ta'lim jarayoni uchun muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi muammoni qo'yishni bilibgina qolmay, uning yechimini topish usullarini o'quvchilarga o'rgatishi kerak.

Muammoni to'g'ri (muayyan masalaga o'xshash, masalalar qanday yechiladi), shaxsiy (muayyan masalada berilgan obyekt obraziga kirishga harakat qilish va shu nuqtai nazardan mulohaza yuritishga urinib ko'rish), simvolik (ikki jumla orqali masalaning mohiyatini obrazli aniqlashni berish), fantastik (bu masalani ertak qahramonlari qanday yechgan bo'lar edilar)^[4].



Muammoli vaziyatni bunday usulda yechishga o'rgatish orqali o'quvchilarda sinetik, abstraksiyalash, fantaziya qilish, o'zgalarni eshinish, oddiydan g'ayrioddiy, g'ayrioddiydan oddiyni topish va o'xshatishlardan mohirona foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish, ishonchli dalillar asosida o'z fikrida tura olish, muxolif tomonning fikrini munozara qilish malakasini rivojlantirish, o'quvchini faol fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o'z fikrini bayon qilish bilan birga boshqalarni ham eshinish mahoratini rivojlantirish, o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zarur xulosalar chiqarish, shuningdek, ixtirochilik, tadqiqotchilik va loyihalovchilik kabi sifatlarni shakllantirishdir.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyalari (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarning yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar muammoli vaziyatlarda samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni “esdan chiqaradi”. Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, “gap nimada?” degan savol tug'iladi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi subyekt-obyekt-subyekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Bugungi kunda muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli o'qitish o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi – pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir ^[5].

Muammoli o'qitish o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi.

Muammoli o'qitish ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechim yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo yangi bilimlar va harakat usullari sari o'zi yo'lga boshlaydi.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi – talabalarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri – o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari bo'yicha talabalar dars o'tish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi talabalarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntirish va uni yechish yo'lini topish;
- bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qilish;
- hal etish uchun yetarli bo'lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etish va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini talabalar bilan birgalikda topadi;
- talabalar o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- talabalarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'limning asosiy maqsadi – bilimlarni talabalarga tayyor holda berish emas, balki ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqot ishlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonda muammoli ta'limni qo'llash bo'yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanilgan. Ushbu usul asosida o'quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatleri hamda go'zal nutq shakllantirilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda talaba chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o'qituvchining o'quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi, uning fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo'liga olib chiqish tushuniladi ^[4].

Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o'qituvchining keng bilimiga, ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga va pedagogik mahoratga ega bo'lishidan iborat.

Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;
- ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirish;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- zarur o'quv vositalarini tayyorlash;
- muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;
- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- talabalarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;
- talabalarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim: muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat va talabalarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – talabalarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa ularda qiziqish hosil qiladigan bo'lishidir. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishishning imkoni bo'lmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muammoli ta'lim texnologiyasi talabalarga predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishga mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoning kelib chiqish sabablarini hamda muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: 2017-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
4. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarning loyihalash va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010. – 149 b.
5. Yo'ldashev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 101 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.